



*2024- yil yanvar-fevral oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 815,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 73,5 mln. AQSH dollariga yoki 8,3 %ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **815,2** -8,3 %

(2023- y.: **888,8**)



Saldo

2024- y.: **-286,2** (2023- y.: **-348,6**)




Eksport

2024- y.: **264,5** -2,1 %

(2023- y.: **270,1**)

TSA dagi ulushi, % da

32,4



Import

2024- y.: **550,7** -11,0 %

(2023- y.: **618,7**)

67,6



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 264,5 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2,1 %ga kamaydi) va import hajmi 550,7 mln. AQSH dollariga (11,0 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -286,2 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.











TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral mln. AQSH dollari)

<p>XXR</p> <p>TSA – 227,8</p> <p>Eksport: 74,0 Import: 153,8</p> <p> 27,9 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 210,7</p> <p>Eksport: 90,8 Import: 119,9</p> <p> 25,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 98,4</p> <p>Eksport: 12,9 Import: 85,5</p> <p> 12,1 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 62,5</p> <p>Eksport: 28,1 Import: 34,4</p> <p> 7,7 %</p>	<p>Italiya</p> <p>TSA – 32,5</p> <p>Eksport: 2,9 Import: 29,6</p> <p> 4,0 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 18,9</p> <p>Eksport: 1,3 Import: 17,6</p> <p> 2,3 %</p>	<p>Belorussiya</p> <p>TSA – 18,8</p> <p>Eksport: 3,1 Import: 15,7</p> <p> 2,3 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 11,4</p> <p>Eksport: 11,3 Import: 0,1</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 10,0</p> <p>Eksport: 6,2 Import: 3,8</p> <p> 1,2 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 7,5</p> <p>Eksport: 4,3 Import: 3,2</p> <p> 0,9 %</p>



YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2023- y.	2024- y.
	XXR	129,2	227,8
	Eksport	15,7	74,0
	Import	113,5	153,8
	Rossiya	205,3	210,7
	Eksport	81,8	90,8
	Import	123,5	119,9
	Qozog'iston	159,5	98,4
	Eksport	11,8	12,9
	Import	147,7	85,5
	Italiya	9,1	32,5
	Eksport	2,1	2,9
	Import	7,0	29,6
	Turkiya	107,3	62,5
	Eksport	83,5	28,1
	Import	23,8	34,4
	Germaniya	22,3	18,9
	Eksport	3,0	1,3
	Import	19,3	17,6
	Belorussiya	19,0	18,8
	Eksport	2,7	3,1
	Import	16,3	15,7
	Afg'oniston	7,0	11,4
	Eksport	6,9	11,3
	Import	0,1	0,1
	Tojikiston	13,6	10,0
	Eksport	5,0	6,2
	Import	8,6	3,8
	Qirg'iziston	9,3	7,6
	Eksport	5,6	4,3
	Import	3,7	3,3




HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,8 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,5 %ga kamaydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 56,2 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-fevral oylarida 357,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 121,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 235,2 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, ulushi, %da)



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushi Rossiya (25,8%), Qozog'iston (12,1%) hamda Belarus (2,3%) davlatlari bilan qayd etildi.




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 401 taga yetdi va ular tomonidan 264,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral ulushi %da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	270,1	264,5	91,5	97,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29,2	30,1	105,1	103,0	10,8	11,4
Ichimliklar va tamaki	0,4	1,1	135,4	2,5 m.	0,2	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,7	9,4	43,0	166,1	2,1	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	2,0	7,5 m.	3,5 m.	0,2	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	1,6	0,0	0,0	0,0	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	13,0	12,9	175,7	99,1	4,8	4,9
Sanoat tovarlari	177,3	152,3	85,9	85,9	65,6	57,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4,8	9,9	67,4	2,1 m.	1,8	3,7
Turli xil tayyor buyumlar	38,7	44,6	124,3	115,1	14,3	16,9
Xizmatlar	0,4	0,6	23,5	143,5	0,1	0,2


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (57,6%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,4%) va turli xil tayyor buyumlar (16,9%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 %ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,6 %ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, %da)

34,3



Rossiya

28,0



XXR

10,6



Turkiya

4,9



Qozog'iston

4,3



Afg'oniston

2,4



Tojikiston

1,6



Qirg'iz
Respublikasi

13,9




Boshqa
davlatlar



TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, mln.AQSH doll.)*



2023- y.

2024- y.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-fevral oylarida 24,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 12,3 mln. AQSh dollariga teng 22,1 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 2,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 14,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
1,2 ming tonna
2,2 mln. AQSH
dollari

Uzum
0,9 ming tonna
1,1 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar
0,2 ming tonna
0,3 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
22,1 ming tonna
12,3 mln. AQSH
dollari




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 550,7 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 89,0 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,4%), sanoat tovarlari (12,6%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (8,2%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,9 mln. AQSH dollariga kamaydi va 550,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,2 mln. AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	618,7	550,7	110,1	89,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	113,5	106,9	110,0	94,3	18,3	19,4
Ichimliklar va tamaki	0,5	0,7	79,1	142,4	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	138,8	33,1	168,6	23,9	22,4	6,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	47,8	58,1	3,4 m.	121,5	7,7	10,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	16,3	13,9	188,7	85,2	2,6	2,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	56,9	45,2	97,9	79,3	9,2	8,2
Sanoat tovarlari	72,4	69,6	67,9	96,1	11,7	12,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	160,6	188,7	105,7	117,5	26,0	34,3
Turli xil tayyor buyumlar	10,4	9,8	38,9	94,1	1,7	1,8
Boshqa tovarlar	0,6	23,5	43,0	37,0 m.	0,1	4,3
Xizmatlar	0,9	1,2	11,5	133,0	0,1	0,2

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-fevral oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 42,7 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,8 %ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Italiya, Turkiya, Germaniya va Shvetsariya) jami importning 84,7 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.